



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 69-72 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

YASHIL BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITI BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBALAR VA ULARDAN RESPUBLIKAMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.



Annotatsiya. Maqolada yashil buxgalteriya hisobi va auditi tizimining nazariy asoslari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar va xorijiy amaliyotlar tahlil qilinib, yashil hisob va auditning korxonalar faoliyati samaradorligi, ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda yashil buxgalteriya hisobi va auditini rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xalqaro hisobot standartlarini joriy etish hamda ekologik xarajatlar hisobini alohida yuritish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: yashil buxgalteriya, yashil audit, ekologik xarajatlar, barqaror rivojlanish, ESG, ekologik hisobot, xalqaro tajriba.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы системы «зеленого» учета и аудита, опыт развитых стран и возможности их применения на практике в Узбекистане. В ходе исследования проанализированы научная литература, международные стандарты и зарубежная практика, обоснована важность «зеленого» учета и аудита для обеспечения эффективности деятельности предприятий, экологической ответственности и устойчивого развития. По результатам исследования, развитие «зеленого» учета и аудита в Узбекистане требует совершенствования нормативно-правовой базы, внедрения международных стандартов отчетности и отдельного учета экологических издержек.

Ключевые слова: «зеленый» учет, «зеленый» аудит, экологические издержки, устойчивое развитие, ESG, экологическая отчетность, международный опыт.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of green accounting and auditing, the experience of developed countries, and the potential for their practical application in Uzbekistan. The study analyzes scientific literature, international standards, and international practices, substantiating the importance of green accounting and auditing for ensuring enterprise performance, environmental responsibility, and sustainable development. The study concludes that the development of green accounting and auditing in Uzbekistan requires improving the regulatory framework, implementing international reporting standards, and separately accounting for environmental costs.

Keywords: green accounting, green audit, environmental costs, sustainable development, ESG, environmental reporting, international experience.

Kirish

Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muammolarning kuchayishi korxonalar faoliyatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli dunyo amaliyotida "yashil buxgalteriya hisobi" (Green Accounting) va "yashil audit" (Green Audit) tushunchalari keng qo'llanila boshladi.

Yashil buxgalteriya hisobi korxonalar faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini pul ifodasida baholash, ekologik xarajatlar va majburiyatlarni hisobga olish hamda manfaatdor tomonlarga taqdim etishni nazarda tutadi. Yashil audit esa ekologik faoliyat, ekologik risklar va ekologik hisobotlarning ishonchliligini baholashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Yaponiya va Avstraliyada yashil hisob hamda audit tizimlari korporativ boshqaruvning muhim elementiga aylangan. O'zbekistonda esa "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida ushbu yo'nalishlarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi yashil buxgalteriya hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini asoslash.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Yashil buxgalteriya hisobi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaygan. Zamonaviy tadqiqotlarda yashil buxgalteriya korxonalarining ekologik va iqtisodiy samaradorligini uyg'unlashtiruvchi boshqaruv vositasi sifatida talqin qilinmoqda. So'nggi meta-tahlillar ekologik audit, ekologik hisobot, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va barqaror rivojlanish yashil buxgalteriyaning asosiy yo'nalishlari ekanligini ko'rsatadi.)

C.Chairia, S.Cahyati, M.A.Fauzanlarning fikricha, "yashil buxgalteriya konsepsiyasi "People-Planet-Profit" tamoyiliga asoslanishini va korxonalarining ekologik mas'uliyatini oshirishda muhim rol o'ynashini" [1] ta'kidlaydilar.

K.M. Parikh va S.S. Sodha tadqiqotlariga ko'ra, "Global hisobot berish tashabbusi (GRI, Global Reporting Initiative) [2], Barqarorlik buxgalteriya standartlari kengashi (SASB, The Sustainability Accounting Standards Board) [3] va Xalqaro barqarorlik standartlari kengashi (ISSB, International Sustainability Standards Board) [4] kabi xalqaro standartlarning rivojlanishi ekologik axborotlarning oshkoraligini kuchaytirgan" bo'lsa-da, amaliyotda hisobotlarni standartlashtirish bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda [5].

Gunawan, J. Khomsiyah va Y.J.Nilawati fikricha, "yashil buxgalteriyaning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi rolini tahlil qilib, mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar soni jadal o'sayotganligi"ni qayd etganlar [6].

E.Rahmawati, I.Nazaruddin, H.Widiastuti, H.Sofyani va A.W.N.Kholid "ekologik hisobning davlat sektorida ham muhim ahamiyat kasb etishini, ayniqsa ekologik xarajatlar va resurslardan foydalanish samaradorligini nazorat qilishda qo'llanilishi"ni asoslab berganlar [7].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil buxgalteriya hisobi va audit tizimlari korxonalarining ekologik va iqtisodiy natijalarini yaxlit baholash imkonini beradi.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish; qiyosiy tahlil usuli; xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish; umumlashtirish va

ilmiy xulosalash usullari. Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro ilmiy maqolalar, ekologik hisob va audit bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, xalqaro standartlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari va tahlili

Yevropa Ittifoqi tajribasi. Yevropa Ittifoqida korxonalar ekologik xarajatlar, uglerod emissiyasi, energiya iste'moli va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatkichlarini muntazam ravishda hisobotlarda aks ettiradilar. Ekologik, ijtimoiy, boshqaruv (ESG, environmental, social, governance) va barqarorlik hisobotlari investorlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Ekologik audit korxonalarining ekologik siyosati va qonunchilik talablariga muvofiqligini baholash vositasi sifatida qo'llaniladi.

AQSh tajribasi. AQShda ekologik xarajatlar boshqaruv hisobining tarkibiy qismi sifatida yuritiladi. Korxonalar ekologik risklarni aniqlash va ularni boshqarish uchun ichki audit tizimlaridan foydalanadilar. Barqarorlik buxgalteriya standartlari kengashi (SASB, The Sustainability Accounting Standards Board) standartlari asosida ekologik ko'rsatkichlar investorlar uchun ochiq qilinadi.

Yaponiya tajribasi. Yaponiya yashil hisobni davlat darajasida qo'llash bo'yicha yetakchi davlatlardan biridir. Korxonalar ekologik xarajatlar va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlarini alohida hisobga oladilar. Natijada ekologik xarajatlarni optimallashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaygan.

Xorij tajribasini O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari. Tahlillar asosida O'zbekistonda quyidagi yo'nalishlarda yashil hisob va audit tizimini rivojlantirish mumkin: ekologik xarajatlar hisobini alohida tashkil etish; ekologik, ijtimoiy, boshqaruv (ESG) hisobot elementlarini joriy etish; ekologik audit amaliyotini kengaytirish; auditorlar va buxgalterlarning malakasini oshirish; xalqaro standartlarni milliy amaliyotga moslashtirish.

Muhokama

Xorijiy tajribalar tahlili yashil buxgalteriya hisobi va auditning korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Korxonalar ekologik xarajatlarni aniq hisobga olishi natijasida resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi, ekologik risklar kamayadi va investorlar ishonchi mustahkamlanadi.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida korxonalar faoliyatida ekologik axborotlarning shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu sababli xalqaro tajribalardan foydalanish milliy buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari yashil buxgalteriya hisobi va auditning korxonalar faoliyatida ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim vositasi ekanligini ko'rsatdi. Xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda ekologik xarajatlarni hisobga olish tizimini takomillashtirish, ekologik auditni rivojlantirish hamda ekologik, ijtimoiy, boshqaruv (ESG) va barqarorlik hisobotlarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur chora-tadbirlar korxonalar faoliyatining shaffofligini oshirish, ekologik risklarni kamaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Chairia, C., Cahyati, S., & Fauzan, M.A. (2026). Trends in Green Accounting Research: A Systematic Literature Review. *International Journal of Applied Finance and Business Studies*. <https://ijafibs.pelnus.ac.id/index.php/ijafibs/article/view/454>
2. Global Reporting Initiative (GRI) Standards. <https://www.globalreporting.org/standards/>
3. Sustainability Accounting Standards Board (SASB) Standards. <https://sasb.ifrs.org/standards/>
4. International Sustainability Standards Board (ISSB). <https://www.ifrs.org/groups/international-sustainability-standards-board/>
5. Parikh, K.M., & Sodha, S.S. (2024). Beyond Financials: A Systematic Literature Review on the Role of Green Accounting in Environmental Sustainability. *International Journal of Management, Public Policy and Research*.
6. Khomsiyah, Gunawan, J., & Nilawati, Y. J. (2023). Green Accounting, Environmental Accounting, and Sustainability: A Current and Future Opportunity. *AFRE: Accounting and Financial Review*, 6(2), 202-211.
7. Rahmawati, E., Nazaruddin, I., Widiastuti, H., Sofyani, H., & Kholid, A.W.N. (2024). Environmental Accounting in Public Sector: Systematic Literature Review. February 2024. *Journal of Accounting and Investment* 25(1):75-90
8. ESG-принципы в 2026 году: инструкция по внедрению. <https://finance.mail.ru/card/esg-printsipy-628/>

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

